https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Xoshimova Odina Olim qizi,
NamDCHTI tayanch-doktoranti, odina.khoshimova@gmail.com

ZOONIMIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QIYOSIY LEKSIKOGRAFIK TAHLILI VA IZOHLI LUG‘AT YARATISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi zoonimik frazeologik birliklarning izohli frazeologik lug‘atlardagi aks etish tamoyillari ilk bor kompleks va qiyosiy tahlil qilindi. Unda Sh. Rahmatullayev rahbarligida tuzilgan “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”, hamda D. Laymaning “Dictionary of Animal Words and Phrases” asosiy empirik manba sifatida tanlandi. Qiyosiy tahlil natijalari zoonimik frazeologik birliklarning milliy-madaniy kod, mifologik tasavvurlar va ijtimoiy tajriba bilan uzviy bog‘liqligi, shuningdek, lug‘atlarda ularning normativ, uslubiy va pragmatik xususiyatlari turlicha talqin qilinishini ko‘rsatdi. Mazkur xulosalar ikki tilda zoonimik frazeologik lug‘at tuzish uchun ilmiy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: zoonimik frazeologik birliklar, frazeoogizm, lug‘at birligi, leksikografiya, qiyosiy tilshunoslik.

KIRISH

Hozirgi zamon tilshunosligida o‘zbek va ingliz tillaridagi zoonimik frazeologik birliklar tizimini leksikografik jihatdan chuqur o‘rganish va tavsiflash masalasi dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bunday tahlilni amalga oshirish jarayoni bir nechta zarur bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqichlar orasida ayniqsa mavjud frazeologik lug‘atlarning leksikografik tahlili muhim o‘rin tutadi. Bunday tahlil, bir tomondan, til resurslari sifatida xizmat qilayotgan izohli frazeologik lug‘atlarda zoonimik frazeologik birliklarning aks ettirilish holatini aniqlash, ulardagi maqolalar tarkibini ro‘yhatga olish, ularning mazmun-

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

mohiyatini ochib berish va tavsiflashda qanday leksikografik vositalar, hamda metodlar qo‘llanilganini ilmiy mezonlar asosida baholash imkonini beradi. Shuningdek, bu jarayon frazeologik birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini yoritishda, ularning qo‘llanilish doirasi va kontekstual tafovutlarini aniqlashda, shuningdek, ularni tarjima qilish, standartlashtirish yoki lug‘atlarga kiritish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

Zoonimik frazeologik birliklar til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqani yaqqol namoyon etadi. Masalan, o‘zbek tilida chorvachilikka oid tasavvurlar asosida shakllangan frazeologizmlar ustun bo‘lsa, ingliz tilida tabiatni kuzatish, ovchilik va shahar madaniyati bilan bog‘liq obrazlar yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu holat zoonimik frazeologik birliklarni qiyosiy jihatdan o‘rganishda dolzarb ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda frazeologiya va leksikografiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar [1,2,3,4,5] zoonimik frazeologik birliklarning lug‘atlarda qayd etilishi, ularning izohlanish modeli va normativ maqomini aniqlash masalalariga e’tiborni kuchaytirdi. Biroq mavjud ishlarda, ayniqsa, lug‘atshunoslik nuqtayi nazaridan turli tizimli tillar, xususan, o‘zbek va ingliz tillaridagi zoonimik frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili yetarli darajada amalga oshirilmagan. Natijada o‘zbek va ingliz tillaridagi zoonimik frazeologik birliklarning leksikografik talqinida yagona metodik yondashuv shakllanmagan, ularning izoh berish tamoyillari, uslubiy belgilanishi va pragmatik xususiyatlarini qiyosiy asosda umumlashtirish imkoniyati cheklangan holda qolmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi — o‘zbek va ingliz tillaridagi zoonimik frazeologik birliklarni leksikografik jihatdan qiyosiy tahlil qilish, hamda ularning lug‘atlardagi ifodalanish tamoyillarini aniqlashdan iborat.

METODLAR

Tadqiqot jarayonida umumiy va maxsus tilshunoslik metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Jumladan, o‘zbek va ingliz tillaridagi zoonimik frazeologik birliklarning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash uchun qiyosiy-tipologik,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

frazeologik lug‘atlardagi maqola tuzilishi, izoh turi, stilistik belgi va misollar tizimini o‘rganish uchun esa leksikografik tahlil metodlaridan foydalanildi. Empirik material sifatida ozbek tili uchun Sh. Rahmatullayev va hammualliflar tomonidan tuzilgan “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” [6], hamda ingliz tili uchun D. Laymaning “Dictionary of Animal Words and Phrases” [7] manbalar asos qilib olindi.

NATIJALAR

Tahlil natijalari o‘zbek va ingliz tillaridagi zoonimik frazeologik birliklarni izohli frazeologik lug‘atlarda ifodalanishi bir qator umumiy va xususiy belgilarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Sh. Rahmatullayev va boshqalarning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” va Darril Laynmaning “Dictionary of Animal Words and Phrases” asarlari turli metodologik va madaniy asoslarda tuzilgan bo‘lsa-da, ikkisining ham tildagi zoonimik frazeologizmlar boyligini aks ettirishdagi ahamiyati katta. Birinchi lug‘at – milliy frazeologizmlarni tasniflab, xalqona uslubni saqlab qolgan bo‘lsa, ikkinchisi – faqat hayvonlarga oid frazeologizmlar bo‘yicha ixtisoslashgan, tarixiy va madaniy asoslangan maxsus lug‘at sifatida ajralib turadi. Ularning qiyosiy frazeologik birliklarning lingvomadaniy va semantik tafovutlarini chuqur ochib beradi va tarjima, leksikografiya hamda frazeologiya sohalarida muhim nazariy asos yaratadi.

Lug‘atning afzalligi – har bir frazeologik birlikni madaniy-konnotativ va kognitiv asosda izohlaganligida nomoyon bo‘ladi. (jadvalga qarang):

Strukturaviy va format jihatdan qiyosiy tahlil

Ko‘rsatkich	O‘zbek lug‘ati (Sh.Rahmatullayev va b.)	Ingliz lug‘ati (D.Laynman)
Tashkiliy prinsip	Alifbo tartibi, Umumiy frazeologik lugat ko‘rinishida	Alifbo tartibi, idiom asosida
Tavsif turi	So‘z birikmali, gapga teng frazeologik birliklar, izohlar	Idiomlar, leksik izoh va etimologiya
Madaniy sharh	O‘zbek etnografiyasi asosida	G‘arb folklori asosida

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Qo‘llanish misoli	O‘zbek xalq og‘zaki nutqi, adabiyoti va so‘zlashuv uslubidan	Ingliz adabiyoti va so‘zlashuv uslubidan
Terminologik aniqlik	Ba’zida sinonimlar chalkash	Qisqa, lakonik, ko‘p hollarda stilistik izoh yo‘q
Ilmiy yondashuv	Etnosemantik va folklor asosli	Kognitiv-metaforik va madaniy asosli

O‘zbek va ingliz tillaridagi zoonimik frazeologik birliklar har ikki tilning madaniy va semantik manzarasini aks ettiradi. Ularning izohli lug‘atlardagi ifodalanishi o‘rganilganida: o‘zbek lug‘ati etnolingvistik, folklor, adabiy asarlari asosiga tayansa, ingliz lug‘ati metaforik, kognitiv, tarixiy yondashuvga ega. Mazkur qiyosiy tahlil tilshunoslikda kontrastiv frazeologiya, leksikografiya, madaniy semantika sohalarini boyitish bilan birga, tarjimashunoslik va o‘quv jarayonlarida qo‘llaniladigan amaliy vosita sifatida ham xizmat qiladi. Ingliz tilining izohli lug‘atlaridan farqli o‘laroq o‘zbek tilidagi lug‘atlarda barcha izohlar rasmiy uslubda bayon etiladi. Izohlar qisqa va lo‘nda, misollar izohda keltirilgan lug‘aviy ma’nolar bilan birga pragmatik jihatdan kontekstual semalarini namoyon etadi. Illyustrativ misollarni berilishi daliliy qiymatini oshiradi, barchasining manbasi keltirib o‘tiladi. Ba’zi misollar, xususan, keltirilgan birlik yoki iboralar lingvomadaniy qiymatga ega – bular lug‘atning ustun tomonlaridan biridir. O‘zbek tilining izohli lug‘atiga xos bo‘lgan ustunliklardan yana biri izohlarga xalq maqollari, naqllarning ilova qilinishidir. Ingliz tilining izohli lug‘atlarida bunday ma’lumotlar kuzatilmaydi. Maqol va naqllar tilning milliy kaloriti, lozim bo‘lsa olamning milliy lisoniy tasvirini ko‘rsatib beruvchi muhim lisoniy fenomendir.

MUNOZARA VA XULOSA

Zoonimlar – ya’ni hayvonlar nomlari – o‘zbek xalq og‘zaki ijodida inson xatti-harakatini obrazli ifodalovchi vosita sifatida keng qo‘llaniladi. Bu birliklar xalqning dunyoqarashi, tabiatga munosabati, axloqiy baholari va hayotiy tajribalarini mujassam etgan barqaror iboralardir, ammo o‘zbek tilshunosligida aynan zoonimik frazeologik birliklarga bag‘ishlangan izohli lug‘atlar soni cheklangan. Bu esa ularni tizimli o‘rganish va lug‘aviy tavsiflashda muayyan

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

bo‘shliqni yuzaga keltirsada, umumiy frazeologik manbalar – xususan, “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati” mavjud frazeologik birliklarning muhim manbasi sifatida xizmat qilmoqda. Mazkur lug‘at o‘zbek adabiy tili, shevalar, tarixiy yozma yodgorliklar va zamonaviy badiiy asarlar asosida frazeologizmlarni ilmiy mezonlarda to‘plab, ularning semantik yuki, etimologiyasi, nutqiy funksiyasi va madaniy konnotatsiyalarini ochib berishga xizmat qilgan. Bu lug‘at maqolalari faqat statik izoh emas, balki frazeologik birliklarning zamonaviy va tarixiy taraqqiyotini kuzatish imkonini ham beradi. Frazeologik birliklar lug‘atlarda aks ettirilganda, ular faqat semantik jihatdan emas, balki struktur, stilistik va madaniy konnotatsiyalar jihatidan ham to‘liq tasvirlanishi tamoyiliga ushbu lug‘atda qat’iy amal qilinib, har bir frazeologik birlik quyidagi shaklda berilgan:

1. Frazeologik birlikning o‘zi (asosiy shakli). Bu – maqola nomi vazifasini bajaruvchi, leksikografik birlikning o‘zi bo‘lib, aynan og‘zaki va yozma tildagi amaliy shakli bilan beriladi. Masalan: “Bedana yurish”, “Baxt qushi” kabilar. Bu shakl barqaror ifoda sifatida qabul qilinadi va boshqa birliklardan farqlanishi uchun sarlavha sifatida ajratiladi. “Frazeologik birliklarning lug‘atdagi asosiy shakli – xalq tili tajribasi va badiiy nutqda qo‘llanish chastotasi asosida belgilanadi” [6]. Frazeologik birliklar ko‘pincha normativ nutqdagi eng keng tarqalgan shaklda keltiriladi. Variantlari keyingi bandlarda beriladi.

2. Ma’no izohi – birlikning mazmuni soddalashtirilgan tilda tushuntiriladi. Har bir frazeologik birikmaga soddalashgan, lekin ilmiy asosli semantik izoh beriladi. Bu izoh birlikning real nutqdagi vazifasini tushunishga yordam beradi. Masalan: “Bo‘taday bo‘zlamoq” – “*zor-zor yig‘lamoq*” kabi. Izoh qisqa, aniq va umumiy lug‘aviy tildan foydalanilgan. Iboraning emotsional yoki baholovchi ohangi ham ko‘rsatiladi. “Ma’no izohida frazeologizmlarning funktsional yuklamasi, konnotatsiyasi va asosiy semantik yadrosi ochib beriladi” [6]. Shu jihatdan lug‘at umumxalq tili uchun tushunarli bo‘lishi bilan birga, ilmiy izchillikni ham saqlaydi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

3. Qo‘llanma darajasidagi izohlar – kimga nisbatan, qanday holatda, qanday uslubda ishlatilishi. Bu bandda frazeologizmlarning stilistik funksiyasi, nutqiy uslubi, kontekstdagi adresatliligi kabi jihatlar ko‘rsatiladi. Masalan, “Bo‘ri yeb ketarmidi?!” – “*hech narsa bo‘lmaydi, hech nima qilmaydi, qo‘rqadigan hech narsa yo‘q”*. Kinoya sifatida ishlatiladi. Ko‘proq og‘zaki nutqda qo‘llaniladi. Bunda iboraning: nutq uslubi (adabiy, og‘zaki, so‘zlashuv, kinoya, qo‘pol); kimga nisbatan (insonga, hayvonga, jamiyatga); Qanday holatda ishlatilishi (ogohlantirish, nasihat, kinoya, baho) ko‘rsatiladi. Bu jihatlar ularni tarjimada, stilistik tahlilda va madaniy nuqtai nazardan talqin qilishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

4. Ba’zan sinonimik, antonimlik, omonimik yoki variant shakllarda berilishi: Bu qismda bir frazeologizmdan boshqa mazmunan yaqin yoki qarama-qarshi iboralar, shuningdek dialektal, stilistik yoki grammatik variantlar beriladi. Masalan: It yalog‘i tilladan bo‘ladi– sinonimi: ostonasigacha oltindan bo‘lib ketdi; Ish(i) bitdi, eshag(i) loydan o‘tdi – var. ish bitib, eshak loydan o‘tgandan keyin; eshag(i) loydan o‘tdi kabi variantlari ham keltiriladi.

5. Misollar – tarixiy yoki badiiy adabiyotdan keltirilganligi lug‘atning o‘ziga xos tomonlaridan biri ekanligini ifodalaydi. Har bir maqolaga ba’zida badiiy adabiyot, tarixiy yodgorlik yoki og‘zaki nutqdan olingan real kontekstli misol keltiriladi. Bu iboraning amaliy qo‘llanishini, sintaktik holatini va emotsional ohangini anglashga yordam beradi. Masalan, Jo‘jabirday jon *kim? bolachaqasi, qaramog‘idagi kishilar ko‘p.* Misol: *Jo‘jabirday jonman, bolam, ulug‘ biladilar, bir beva qizim uch bolasi bilan ... (S.Ahmad. Hukm).*

Ingliz zamonaviy frazeologik tadqiqotlarda hayvon nomlari asosida yaratilgan turg‘un birikmalar (zoonimik frazeologik birliklar) alohida e’tibor qaratiladigan qatlam hisoblanadi. Bu birliklar xalq tafakkuri, madaniy stereotiplar, til tizimining metaforik asoslarini o‘zida mujassam etadi. Ayniqsa, ingliz tilida hayvon obrazlari asosida shakllangan frazeologizmlarning tahlili uchun Darril Laynmanning “Dictionary of Animal Words and Phrases lug‘ati” muhim manba sifatida maydonga chiqadi. Layman tomonidan tuzilgan ushbu lug‘at 1994-yilda

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Jonathan David Publishers tomonidan nashr etilgan. Lug‘atda hayvon nomlari ishtirokidagi 1000 dan ortiq frazeologik birliklar, maqollar va iboralar jamlangan. Har bir frazeologik birlik: semantik jihatdan izohlangan, etimologik ma’lumot bilan boyitilgan, misollar bilan ko‘rsatilgan. Lug‘at alifbo tartibida tuzilgan bo‘lib, tizimlilik, aniq struktura va madaniy izohlar bilan ajralib turadi. Struktur xususiyatlari quyidagicha asoslangan: komponent tavsifi, frazeologik birlik (headword) hayvon komponentli ibora, tushuntirish (definition) ko‘chma ma’no, asosiy semantik mazmun, etimologik eslatma (origin): tarixiy manba, folklor, diniy kontekst, qo‘llanilish misoli (usage) adabiy yoki og‘zaki nutqdan namuna, madaniy izoh (cultural note), tarixiy-madaniy yoki psixologik konnotatsiya:

“To cry wolf” zoonimik frazeologik birlikni lug‘atda berilishi:
Ma’nosi: to give a false alarm; Kelib chiqshi: Ezop masallari (Aesop’s fable “The Boy Who Cried Wolf”); Foydalanish holati: “After three false calls, no one responded when he actually needed help” kabilar.

Hayvon obrazlarining semantik guruhlari quyidagicha ifodalangan:

Kategoriya+ Mazmuni+ Misollar; Aqliy xususiyatlar +Ayyorlik, nodonlik, hafsalasizlik: sly as a fox, silly goose; Axloqiy baho+ Halollik, hiyla, yovuzlik: snake in the grass, gentle as a lamb; Jismoniy holat+ Kuch, og‘irlik, harakatsizlik: strong as an ox, lazy dog; Sotsial vaziyatlar+ Ijtimoiy mavqe, ijtimoiy harakatlar: black sheep, top dog; kabilar. Bu guruhlar orqali hayvon nomlari inson faoliyatining barcha sohalariga metafora sifatida tatbiq etilishi ko‘rsatiladi.

Semantik ko‘chishlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: hayvon nomi o‘zining tipik sifatidan kelib chiqib, ko‘chma ma’noda ishlatiladi: Dog → “to dog someone” – izidan qolmaslik, quvish; Fox → “foxy” – jozibali, ayyor; Chicken → “to chicken out” – qo‘rqib orqaga chekinish kabilar. Bu semantik ko‘chishlar insoniyatning hayvonlarga nisbatan metaforik assotsiatsiyalari orqali yuzaga kelgan. Etimologik tahlil va manba ko‘rsatkichlarini quyidagicha talqin qilishimiz mumkin: bu ularning tarixiy ildizlari (masalan, Esop masallari), bibliyaviy manbalari (masalan, “a wolf in sheep’s clothing”), adabiy kontekstlari (masalan,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Shakespeare, Dickens asarlari) kabi madaniy asoslarini aniqlashga xizmat qiladi. Masalan, Cock and bull story – Etimologiyasi 17-asrdagi ingliz tavernalari (Cock Inn va Bull Inn) ga borib taqaladi [8].

Diskursiv qo‘llanish va kontekstual misollarni berilishi ham lug‘atda o‘z aksini topgan diskursiv qo‘llanish va kontekstual misollarni berilishi ham lug‘atda o‘z aksini topgan. Lug‘atda har bir frazeologik birlik uchun real hayotdan yoki adabiyotdan olingan namunalar keltirilgan. Bu orqali quyidagilar namoyon bo‘ladi: frazeologik birlikning stilistik registresi aniqlanadi (rasmiy, so‘zlashuv, vulgar), pragmatik funksiyasi ochiladi (masxara, tanqid, tavsiya). Masalan: You’re the black sheep of the family. (context: informal, disapproval). Bu yondashuv korpus lingvistikasi va kontekstual pragmatika nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi.

Olingan natijalar zoonimik frazeologik birliklarning lug‘atlarda aks etishi leksikografik an’ana va ilmiy yondashuv bilan chambarchas bog‘liqligini tasdiqlaydi. O‘zbek lug‘atlarida normativlik va adabiy me’yor ustuvor bo‘lsa, ingliz lug‘atlarida kommunikativ va pragmatik yondashuv kuchliroqligi namoyon bo‘ldi.

Bu farqlar tarjima jarayonida semantik ekvivalentlik muammolarini yuzaga keltiradi. Ayrim zoonmik frazeologik birliklar to‘liq ekvivalentga ega bo‘lmasa, tarjimada izohli yoki funksional moslikka asoslangan yondashuv talab etiladi. Ushbu holat zoonimik frazeologik birliklarni lug‘atshunoslik nuqtayi nazaridan chuqurroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy frazeologik birliklar lug‘atlarining eng dolzarblaridan biri izohli frazeologik lug‘ati ekanligi va ushbu lug‘at ilmiy jihatdan eng kam o‘rganilgan frazeologik lug‘atlardan biridir. Zero, chet tillarini mukammal o‘rganishda bunday lug‘atlarning ahamiyati beqiyosdir. Ta’kidlab o‘tganidek, har qanday tilning frazeologik birliklar xazinasi noyob milliy, madaniy-tarixiy shakllangan til unsurlaridan hisoblanadi. Zoonimik frazeologizmlar izohli lug‘atlarda alohida qatlam sifatida ajratilishi lozim. Binobarin, o‘zbek va ingliz tillaridagi zoonimik frazeologik birliklar xalq tafakkuri va obrazli til qurilishining eng barqaror

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qismlaridan biri bo‘lib, ularni umumiy frazeologik lug‘atlardan alohida, tematik yo‘sinda (masalan, “hayvon obrazi asosidagi frazeologik birliklar”) jamlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Berdiyorov H.,Rasulov R, Yo‘ldoshev B., O‘zbek frazeologiyasidan materiallar. Toshkent: Fan, 1983, – 205 b.
2. Shodmonov S. Frazeologik birliklarning tarixiy qatlamlari va zamonaviy til tizimidagi o‘rni, 2015. – 200 b.
3. Kunin, A.V. Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazyka. Moskva.: Vysshaya shkola, 1972. – 488 b.
4. Cowie, A.P., Phraseology: Theory, Analysis and Applications. Oxford University Press, 1998, – 272 b.
5. Gläser R. The Stylistic Potential of Phraseological Units in the Light of Genre Analysis, 1984. – P.125-143.
6. Sh.Rahmatullayev va b., O‘zbek tili izohli frazeologik lug‘ati. Toshkent, 2022. – 636 b.
7. D.Lyman, “Dictionary of Animal Words and Phrases lug‘ati”, Jonathan David Publishers, New York, 1994. – 280 b.
8. Merriam-Webster.com Dictionary, Merriam-Webster, https://www.merriam-webster.com/dictionary/cock-and-bull%20story. Accessed 21 Sep. 2025.